



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISHNING ILMIY ASOSLARI

Mansurova Nilufar Muxtimovna

Xalqaro NORDIC universiteti Pedagogika fakulteti katta o'qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda davlatimizda xorij tajribalarining ta'lif tizimiga kirib kelishi, xalqaro baholash tizimini targ'ib etilishi xususidagi ilmiy nazariyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, metodlar, pedagogik tahlil, o'quv dasturi, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, sifat darajasi

### Kirish

Hozirda yosh kelajak avlodning faolligini shakllantirish nafaqat bir mamlakat uchun balki, xalqaro hamjamiyatimiz uchun ham e'tiborli masala hisoblanadi. Shu boisdan , globallashuv jarayoni kelajak egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo xalqlarining maqsadlarini birlashishiga olib keldi. Yer kurrasida 227 tadan ortiqroq davlat bo'lsa barchasi shuni biladiki , ta'lifning jamiyatimiz taraqqiyoti va har bir inson rivojlanishida muhim o'rni bordir, shuning uchun ham ta'lif sifatiga keng miqyosdagi e'tibor qaratilgan. Hozirgi kunda ta'lif sifatini yanada chuqurlashtirish , rivojlantirish va baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta'lif sohasini baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS , ALL kabi baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan.

### Asosiy qism

**PIRLS** xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qanday darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan , o'qish va o'tishni yaxshilashda ta'lif sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. PIRLS loyihasi Ta'lif yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (**IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement**) shafeligidagi yaratilgan. Xalqaro tashkilotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusetts AQSH) Boston kolleji mas'ul hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Gamburdagi ( Germaniya) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

PIRLS ( inglizcha; Progress in International Leading Literacy Study') – Bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

Tadqiqot davriy ravishda- har besh yilda bir marta o'tkaziladi va hozirgacha ham besh marta ; 2001,2006,2011,2016,2021-yillarda o'tkazilgan. PIRLS tadqiqoti



faqatgina o'quvchilar savodxonligini aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimidan iborat bolibgina qolmay, öz ichiga bu borada olib borilayotgan ta'limga olib borilayotgan islohotlarni aniqlovchi sòrovnomalarni ham oladi. Bunday sòrovnomalar maktab ma'muriyati, öqituvchilar hamda otaonalar yoki vasiylar örtasida amalga oshiriladi. O'quvchilarning ta'lim olishdagi imkoniyatlari va sharoitlari haqidagi sòrovnama ma'lumotlarni ta'lim natijalarini talqin qilishda muhim ro'l òynaydi. PIRLS tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shuki, dasturda erishilgan natijalar tahlili hamda òtkazilgan sòrovnomalar ma'lumotlarining umumlashtirilishi dunyo böylab o'qish savodxonligini oshirishdagi eng yaxshi tajribalarga doir qimmatli ma'lumotlarni tòplash imkonini beradi. Hozirgi vaqtida PIRLS ta'rifiga kora, o'qish savodxonligini jamiyat tomonidan talab qiladigan va inson tomonidan qadrlanadigan, yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish , shuningdek matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Zamonaviy globallashuv va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida "Xar tomonlama rivojlanish komissiyasi" yosh avlodning bilim olish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi yosh avlodni XXI asr ko'nikmalarini va bilimlariga zarur shart -sharoitlar yaratish maqsadida ta'lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr "Xalq ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida"gi choratadbirlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi ta'lim sifatini himoya qilish inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Bu markazning tashkil etilishi o'quvchilarining ta'limdagи yutuqlarini baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko'rindiki, mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllantirilmoqda. Hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF 5712 qarori son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning 30ta il'gor mamlakatlari qatoriga kishiga erishish va xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish orqali o'quvchilarining o'qish va matematika va tabiiy yo'nalishlarda fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Jumladan, 2018-yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'tasida xalqaro bilimlarni baholash dasturi ( Programme for international student assessment PISA) da ishtirok etish to'g'risida kelishuv imzolandi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida bunday xalqaro baholash



tendentsiyalariga amal qilish yosh avlodni faolligini oshirish ,ularning ta'limdag'i izlanishi va kreativligini rivojlanishiga hissa qo'shamiz. Mamlakatimiz o'quvchilar ilk bor 2021-yilda PIRLS -2021 xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi belgilangan edi . 70ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizning 4-sinf o'quvchilarining ishtirok etishlari belgilan qo'yilgan edi. Aynan shu yilda o'tkazilgan tadqiqotda o'quvchilarini birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etilishini rejalashtirilganligini aytish o'rinnidir . Raqamli formatga o'tish bilan birga, Internet muhitida boshqariladigan PIRLS online o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham kozda tutilgan.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni "badiiy tajriba orttirish" , axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratilgan . O'z navbatida ushu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi ,bular;

- Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish.
- To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish.
- Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish .
- G'oyalar va axborotni tahlil qilish va uyg'unlashtirish .

PIRLS tadqiqotida o'quvchilarining dars vaqtida va mакtabdan tashqari vaqtlarida o'qishni ikki turi baholanadi:

1. O'quvchilarining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish 2. Ma'lumotlarni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Tadqiqot qoidalariga muvofiq , badiiy va informatsion matnlarni o'qiyotganda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

1. Aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish
2. Xulosalarini shakllantirish
3. Ma'lumotlarni talqin va sintez qilish
4. Mazmuni ,til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.

PIRLSda bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi:

- Javobni tanlash usulidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi.
- Mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi.
- Erkin javob berishi kerak bo'lган topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1balldan 3 ballgacha baholanadi. Natijalarni qayta ishslash uchun zamonaviy sinov nazariyasi qo'llaniladi.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500dan 800 tagacha , o'quvchilarining o'qish savodxonligi darjasasi past bo'lган mamlakatlar uchun 400-500ta ,PIRLSda esa taxminan 1000ta so'zdan iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10yoshdagi o'quvchilarga mos ,ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lган



mazmunlardan chetlashgan ,shuningdek, qiziqarli o'quvchiga uncha tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi;

• Eng yuqori daraja( 625 ball va undan yuqori )- O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni patda uning alohida qismlarini bir -biri bilan bog'liq xolda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini izohlash uchun matnga tayana oladi.

• Yuqori daraja( 550ball)- O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham , shakliga ham baho bera oladi, uning til xususiyatlariiga e'tibor qarata oladi.

• O'rta daraja(475 ball)-O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlardan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

• Quiydaraja( 400 ba)-O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatdagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishda qanday hissa qo'shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayoning boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar shunday bo'lsa u nimada namoyon bo'ladi? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa davlatdagi o'qituvchilarning foydalanayotgan metodlaridan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari o'tkazilganda o'quvchilarining so'rovnomasini orqali , ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oilada ta'limiy resurslar , muktabga ,o'qituvchiga, maktabdagi o'quv faniga bo'lgan munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash , sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar to'planadi.

O'qituvchilarning so'rovnomalari o'qituvchilar to'g'risida ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi , xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Ota-onalar so'rovnomalarida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini muktabga tayyorlash, muktabga qabul qilishdan avvalgi ko'nikma va malakalar , otaonalarning muktabga va o'qishga munosabati o'rganiladi.

Muktab ma'muriyati so'rovnomasini orqali muktab quvvati, joylashuvi , jihozlanishi, ta'limiy resurslar, muktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, muktab muhiti o'rganilib, tahlil etiladi.



Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra ,50ta mamlakat ichida, Rossiya ,Singapur,

Gonkong, Irlandiya va Finlandiya mamlakatlari natijalarini qayt etgan bo'lsa , shular orasida singapurlik va gonkonglik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi. Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq; undagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbatni, bola muktabga borgunga qadar o'qish va yozishga o'rgatganligi va muktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi .

PIRLSda Rossiyalik boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Jamiyatda ,o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar orasida o'qish savodxonligi bilan shug'ullanishning qadr-qimmatining tan olinishi, muktabda va oilalarda o'qishga bo'lgan yuqori mativatsiya maktabgacha bo'lgan bosqichning yaxshi natijasi , ota-onalarning o'qishni o'rganishga tayyorgarlik ko'rinishidagi ishtiroki umumiy boshlang'ich ta'limning Federal davlat asosiy standartlarida belgilab qo'yilgan ta'lim jarayonidagi prinsipal o'zgarishlar: "badiiy o'qish " va metapredmet natijalari bo'yicha umumiy ta'limni tashkil etish va natijalarga erishish boshlang'ich ta'limning sifatli dasturlari ,darsliklari, o'qishni o'rgatishni chuqur o'ylangan metodikasi o'qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishslash kabi omillar PIRLSda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida o'rganiladi.

PIRLSda rossiyalik boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlari.

Har bir sinfda ta'limni differensiallashga e'tibor berilishi zarur ,bu borada aksariyat birinchi sinf o'quvchilarining muvaffaqiyatli boshlash zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lgan muktablarga alohida e'tibor berilishi zarur . Yana ikkita muammolarni ko'zda tutish kerakki;

1. Eng kuchli o'quvchilarga kelgusidagi rivojlanishiga ko'maklashish
2. O'g'il bolalarga yordam berish , chunki ularning natijalari qizlarning natijalaridan yomonroq degan fikrlarni ko'rib chiqib, aynan manashu vazifalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLSda yuksak yutuqlarga erishishdagi o'sish nuqtalari deb belgilangan .

Boshlang'ich ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta'lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo'limgan, murakkab( ko'plik) ,turli xil matnlarni o'qish uchun strategiyalar ishlab chiqish, tushunib o'qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish ( qog'oz va kompyuter yordamida) kabi vazifalar qo'yiladi.



Rossiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilayotgan ishlarda PIRLS darslari.

O'qish tezligini nazorat qilishdan ko'ra tushunib o'qishga urg'u berish kuzatildi. O'qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglatmoqda. Rossiyada bu davlat hujjatlari sifatida qayt etilgan( FDAS UBT 2009-yil) . Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy-ilmiy va ma'lumotnomalarni o'qishni o'rgatishda o'ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. O'qish savodxonligini baholashning turli modellari metapredmet natijasi sifatida yaratiladi.

### Xulosa qismi

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish , xalqaro miqyosda davlat nufuzini mustahkamlash bilan birga o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini ham baholab boradi. 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarda O'zbekistonning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ham ishtirok etishining belgilangan edi . Bu qaroq o'qituvchilarga juda katta mas'uliyat yukladi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o'qituvchilardan ta'limimizga yangicha yondoshuvni va faolligini namoyon qilishlarini talab etadi.

O'quvchilarining xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o'qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o'quvchilar o'zi mustaqil ravishda matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi berilsa , har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o'zlashtirganini uning savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o'qituvchilarning dunyoqarashi ,mustaqil fikrlash va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to'g'ri yoki noto'g'ri fikrni tinglab , to'g'ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o'rjanib boradi.

PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Davlatlar PIRLSdan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

- Global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarining tendensiyalarini kuzatib borish.
  - Yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish.
  - Ta'limning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish.
- PIRLS ma'lumotlarni tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'tishni takomillashtirish.
- Adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarini baholash kabi tegishli ishlarni olib borish.



- O'qish va o'qitishni o'rganish.

#### **REFERENCES:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF 5712 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997 -sonli qarori.
3. D .Rabbonayeva maruza matnidan.
4. "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish - inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar , Sidorova Galina Aleksandrova , Rossiya ta'lim akademiyasining ta'lmini rivojlantirish strategiyasi instituti, ta'lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogik fanlar nomzodi. E-mail. [Centeroko@mail.ru](mailto:Centeroko@mail.ru)
5. S. Yo'ldasheva va M. Rahimqulova maruza matnidan.